O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKAUNIVERSITETI

“Pedagogika” kafedrasi

TARBIYA FANI:

yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

M A T E R I A L L A R I

2023 yil 22 noyabr

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI


NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“Pedagogika” kafedrasi

“TARBIYA FANI:

yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

DASTURI



2023 yil 22 noyabr

“TARBIYA FANI:YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent.: 2023 yil. 22 noyabr.

Mazkur to‘plamda respublikamiz OTM professor-o‘qituvchilarining ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash: kecha va bugungi xolati, Tarbiya fani o’qituvchisini tayorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari, ta’lim muassasalarida Tarbiya fani o’qituvchisini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, ta’lim-tarbiya jarayonida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik va psixologik jihatlariga doir qarashlari va taklif-mulohazalar o‘z aksini topgan. Mazkur to‘plam materiallaridan ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir: F.O. Mirzaeva – Pedagogika kafedrasi mudiri, dotsent
Tahrir hay’ati a’zolari:
Pedagogika fanlari doktori professor - **Sh.Shodmonova**
Pedagogika fanlari doktori professor - **A.Muxsiyeva**

Taqrizchilar:
M.B.Urazova – pedagogika fanlari doktori professor
M.T.Mirsoliyeva – pedagogika fanlari doktori, dotsent
Sahifalovchi - **G.X. Narzullayeva** - 1-kurs magistranti.

Anjuman materiallari Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy Kengashining 2023 yil 15-noyabrdagi 4 – sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni, ilmiy salohiyati va dalillarning haqqoniyligi, stilistik va orfigrafik xatolar uchun mualliflar mas’ul.

naqqoshning Hirot “Nigoristoni” (San’at akademiyasi) bo‘lganligi va unda Kamoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma’lum.

O‘quvchilarda milliy-badiiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirish quyidagi vazifalarning muvaffaqiyatli hal etishni talab etadi:

o‘quvchilarda milliy-badiiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirish tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish;

tasviriy san’at vositasida o‘quvchilarda milliy-badiiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirish mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish;

dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida tasviriy san’at vositasida o‘quvchilarda milliy-badiiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirish modelini ishlab chiqish;

tasviriy san’at vositasida o‘quvchilarda milliy-badiiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022 yil 28 yanvardagi ”2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.

2. Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori.

3. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ta’lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining Axborotnomasi. 4-maxsus son. Fizika. Matematika. Informatika. Chizmachilik. Texnologiya ta’limi – T: sharq, 1999. – 304 b.

4. Sayidahmedov N. S. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot) – T.: Moliya, 2003 –172 b.

TALABALARDA AXBOROT KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Yakubov Baxtiyor Baxriddin o’g’li

Termiz davlat universiteti Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrasi o‘qituvchisi

yakubov2436@gmail.com, ***tel.: 99893037-25-25.***

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot kompetentligi tushunchalari keng yoritilgan bo‘lib, MDH va xorijiy olimlarning kompetentlik tushunchasiga berilgan ta’riflaridan iqtiboslar keltirilgan. Shuningdek, maqolada talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirish mazmuni psixologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Kompetentlik, axborot ta’lim muhiti, ijodiy xislatlar, axborot kompetentligi, psixologik omillar, tafakkur.

Аннотации. В данной статье широко раскрыты понятия информационной компетентности, а также приведены цитаты из определений понятия компетентности, данных учеными стран СНГ и зарубежья. Также в статье психологически анализируется содержание развития информационной компетентности студентов.

Ключевые слова.Компетентность, информационная образовательная среда, творческие качества, информационная компетентность, психологические факторы, мышление.

Annotation. In this article, the concepts of information competence are widely covered, and quotations from the definitions given to the concept of competence by CIS and foreign scientists are given. Also, the content of developing students' information competence is psychologically analyzed in the article.

Key words. Competence, information educational environment, creative qualities, information competence, psychological factors, thinking.

Dunyo psixologlarining axborotlashish sohasidagi tadqiqotlari asosida hozirgi paytda shaxsiy yo‘nalgan yondoshish nuqtayi nazaridan “axborot ta’lim tizimlari psixologiyasi” qizg‘in rivojlanmoqda.

Kompyuter muhitida ta’lim olishda shaxsning ijodiy xislatlari shakllanishi, evristik ta’lim amalga oshishi kabi shaxsga yo‘naltirilgan kompyuter ta’limining yana ham xususiy muammolari Ye.A.Loktyushina, A.V.Xutorskiy, A.V.Mogilev, V.I.Suminlarning ilmiy tadqiqot [85, 155, 96] ishlarida o’rganilgan.

Shaxsga-yo‘naltirilgan kompyuter ta’limi samaradorligi shartlaridan biri, mualliflarning fikriga ko‘ra, kompyuter muhiti yaratish hisoblanadi, u quyidagi psixologik talablarni qondirishi kerak:

- O‘quvchilar bilish ehtiyojlarining diagnostikasi va ularga munosabat bildirish tizimi.
- O‘quv jarayoni qatnashchilarining o‘zligini ijodiy namoyon qilish imkoniyati.
- Mustaqil ilmiy kashfiyotlar va shaxsan rivojlantiriladigan pedagogik vaziyatlarning modellashtirilishi.
- Motivatsiya-emotsional qo‘llab-quvvatlash vositalarining tizimga joriy qilinishi.

Kompyuter ta’limi psixologik jihatlariga oid ishlarning tahlili ko‘rsatishicha, ehtimoliy psixologik oqibatlar va muammolarni hisobga olgan holda ularni amalga oshirish samarali metodlari va usullariga nisbatan kompyuter ta’limi psixologiyasining fundamental nazariy asoslari ko‘proq ishlab chiqilgan. Bugungi kunda kompyuter ta’limi psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlar ishlab chiqilgan, psixologik yo‘nalgan ta’lim metodlari va usullari rivojlanishiga kuchli turtki bergan.

Kompyuter texnikasi rivojlanishi va uning psixologik-pedagogik imkoniyatlari kengayishi bilan asosan zamonaviy innovatsion texnologiyalarga tayangan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning psixikasiga ta’sir spetsifik amaliy metodlari va usullari ham paydo bo‘ldi.

Bizdagi ta’lim va kompyuter ta’limining og‘riqli nuqtalaridan biri yarim shar (verbal mantiqiy, tahliliy) tafakkur rivojlanishining ustunligi hisoblanishi ko‘p bor aytiladi. Shuning uchun hozir “psixologik tamoyil” sifatida oliy ta’limni

axborotlashtirish Konsepsiyasida belgilangan o‘ng yarim shar tafakkurini rivojlantirish maqsadida kompyuter ta’limiga yondoshish o‘zgarmoqda. Uni amalga oshirish misoli sifatida faqat kompyuter geometriyasi va grafikasi vositalaridan ta’limda foydalanishni kuchaytirish ko‘rsatilgan.

O‘ng yarim shar tafakkurini rivojlantirishga nisbatan kompyuter texnologiyalari imkoniyatlari tadqiqotining dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, ijodiy shaxsni shakllantirish va tarbiyalash shunday tafakkur tipiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shunday qilib, psixologik nuqtayi nazardan ta’lim kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish talablari sifatida odam miyasining ikkala yarim shari imkoniyatlaridan adekvat foydalanish prinsipini keltirish mumkin.

Mazkur prinsipni amalga oshirishning istiqboli yo‘nalishlaridan biri bosh miya ikkala yarim sharining baravar, yaxlit ishlashiga asoslangan xolistik ta’lim nazariyasi hisoblanadi.

Xolistik yondoshish prinsipini amalga oshirish psixologik, fiziologik, tibbiyot va muhandislik tadqiqotlariga asoslanadi.

Ko‘pchilikni tashvishlantirayotgan yana bir muammo neyrolingvistik dasturlash hisoblanadi.

Hozir “inson-inson” kodlashtirish tizimi “inson-kompyuter-inson” tizimiga mofidikatsiya qilinmoqda, bunda inson ahvolini unga sezdirmasdan boshqaradigan ovozli yozuvlar va poligrafiyalar texnologiyasini amalga oshiradigan dasturiy mahsullardan foydalanilmoqda.

Qabul qilishga ta’sir qilishning nisbatan yangi usullari orasida – modallik (sensor tizimlar)ka ta’sir qilish bor. Neyrofiziologlar aniqlashlaricha, nigoh yo‘nalishi ta’sir uchun ochiq muayyan sensor kanallarga mos keladi. Sodda xulosa quyidagicha: ko‘zlarning muayyan harakati trayektoriyasini tashkil qilib, insonning barcha sensor tizimlariga bevosita yoki bilvosita yo‘l topish mumkin.

Inson psixikasiga ranglar orqali ta’sir qilish metodlarini ko‘plab olimlar ishlab chiqqan. Jumladan, Lyusher testi insonning psixoemotsional holati va jismoniy salomatligi to‘g‘risida ishonarli ma’lumotlar olishni ta’minlaydi. Biroq Lyusher tomonidan teskari vazifa ham hal qilingan – muayyan dastur bo‘yicha ranglarni insonga izchillikda taqdim qilib (bunga kompyuter o‘yinlari va multfilmlarda erishish oson), insonning psixoemotsional holatida deyarli istalgan o‘zgarishlarga erishish mumkin.

Bizningcha, kompyuter texnologiyalari beradigan psixik ta’sir metodlaridan biri hozircha yetarli o‘rganilmagan. Biroq, shu narsa shubhasizki, ularning uyg‘unligida, shu jumladan ta’limda katta kelajak bor. Shuning uchun psixologik vositalar ta’limda faqat ular amaliy tibbiyot sinovidan o‘tgandan keyin va ularning muvofiqligi va xavfsizligiga oid zarur barcha hujjatlar bor holatda qo‘llanilishi

kerak. Ulardan foydalanish jarayonida o‘qituvchi zimmasiga talabalarning psixoemotsional holatini nazorat qilishga oid qo‘shimcha funksiyalar yuklatiladi.

Biroq psixologik imkoniyatlar mazkur tashqi ta’sir yo‘nalishlari bilan cheklanmaydi. Ichki ta’sir uchun imkoniyatlarni tadqiq qilish yo‘nalishi ham bor, bunda inson kompyuterdan shaxsiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida foydalanadi.

Ta’kidlash kerakki, shaxsga ta’sir ko‘rsatish psixologik jihatlariga ega kompyuter dasturlarini amaliy rivojlanishi hozirgi bosqichining tahlili ko‘rsatishicha, ularni amalga oshirish sifati ta’limda foydalanish uchun juda past hisoblanadi, ehtimoliy salbiy psixologik oqibatlari esa kam o‘rganilgan. Tadqiqotlar sharhining ko‘rsatishicha, kompyuter vositalari yordamida insonga psixologik ta’sir qilish masalalari murakkab pedagogik va ilmiy muammo bo‘lib, hozircha unga bir xil yondoshib ham, hal qilib ham bo‘lmaydi. Psixologolik vositalarni nafaqat tizimli ravishda nazorat qilish, balki ayrim holatlarda cheklash kerak, chunki ular ta’limga zid maqsadlar tomonga yo‘nalgan bo‘lishi ham mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ta’lim axborotlashuvining shiddat bilan rivojlanishi “inson-kompyuter” tizimida qator yangi ilmiy muammolarni qo‘yadi, ular turli psixologik jarayonlar, shu jumladan tafakkur bilan bog‘liq.

Tafakkur ta’rifiga binoan, subyekt qandaydir yangilikka o‘tish maqsadida mavjud ma’lumotlar bilan faol shug‘ullanadi. Inson tafakkuri mulohaza faoliyatining asosiy shakli sifatida tafakkur vazifalarini hal qilish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ta’lim amaliyotida turli vazifalarni hal qilish bilimlar va qobiliyatlarni o‘zlashtirish, aqliy qobiliyatlar va shaxsiy xislatlarni rivojlantirishning asosiy sharti va vositalaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Vazifalarni hal qilish jarayoni turli yo‘nalishdagi psixologlar tomonidan tafakkur qonuniyatlarini ochishda foydalaniladi. Pedagogik psixologiya doirasida nafaqat tafakkur umumiy qonuniyatlari to‘g‘risidagi masala, balki “vazifalar olinadigan bilim sohasi xarakteri bilan bog‘liq spetsifik o‘ziga xosliklar to‘g‘risidagi masala ham” ko‘tariladi. Vazifalar tiplarining xilma-xilligi tafakkur mexanizmlari va usullari xilma-xilligini ham taqozo qiladi.

Ta’lim sohasini kompyuterlashtirish jarayoni, “inson-kompyuter” tizimidagi bilish faoliyati kompyuter bilan hamjihatlik qiladigan insonning intellektual qarorlarini samarali tashkil qilish uchun asosli tavsiyalarni talab qiladi. Kompyuter intellektual faoliyat vositasi sifatida inson tafakkuri tashkil qilinishiga alohida talablarni qo‘yadi. Inson intellektual faoliyati uning kompyuterlashgan shakllarida nokompyuterlashgan tafakkur shakllariga nisbatan spetsifik hisoblanadi. Bu hodisa mazkur faoliyat turi maxsus vazifalari va aqliy vositalari bilan mustaqil kasb tusini olishi bilan izohlanadi.

Informatikada: «inson–inson», «inson–mashina», «mashina–inson», “mashina–mashina”, «inson–mashina–inson», «mashina–inson–mashina» shaklidagi o‘zaro hamjihatlik turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ikkinchi va uchinchi kommunikatsiya turlari birinchi galda insonning mashina bilan hamjihatligi imkoniyatlarini belgilaydi. Bunday muomalaning samaradorligi ayrim vazifalarni hal qilish va uning shunday hamjihatlikni amalga oshirishga uning psixologik tayyorligi uchun EHMlari imkoniyatlarini inson bilishiga bog‘liq.

U abstrakt tafakkurni “kuchaytiruvchi” xizmatini bajaradi va uning natijalari samarali amaliy qo‘llanilishiga yordam beradi. Ayni vaqtda axborotdan foydalanadigan faoliyat qayta quriladi. Haqiqatdan ham intellektual protseduralarning kompyuterlashuvi va avtomatlashishi nafaqat axborotni qayta ishlash va saqlashning yangi usullarini keltirib chiqaradi, balki tafakkur faoliyatining o‘zi o‘zgaradi... Pedagogika sohasida ko‘rsatilgan jarayonlar ta’siri ostida rivojlangan faoliyat va tafakkur yangi shakllarini o‘qitishning yangi vazifalari ko‘ndalang bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Hazratqulov O‘., Soliboyeva S. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda interfaol usullarning qo‘llanishi // Pedagogik mahorat jurnali. 3/2021

2. Grishkevich Yevgeniya Valeryevna. Model formirovaniya sotsialno-pedagogicheskoy kompetentnosti budushego pedagoga. Opublikovano 24.03.2022 avtorom himpel

3. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2008.

4. Yakubova U.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentliligi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2023-yil. 3-son.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Yakibova Dilorom Sharifovna

Termiz davlat universiteti Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

dyakibova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompetensiya va kasbiy kompetentlik tushunchalarining mazmuni hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, pedagogika, kompetentlilik, shakllantirish bosqichlari, qobiliyat.

Аннотация. В данной статье анализируется содержание понятий компетентность и профессиональная компетентность, а также психолого-педагогические особенности развития технологической компетентности у будущих учителей.

Ключевые слова.профессиональная компетентность, социальная компетентность, педагогика, компетентность, этапы формирования, способности.

96. Норбўтаев Ф.М. Ижтимоий-маданий компетенцияларини ривожлантириш – долзарб педагогик муаммо……. **363**
97. Умрихина В.И. Сейтакова К. Особенности работы с молодежью в узбекистане……. **367**
98. Саттарова Д.Э. Индукция ва дедукция масалаларини психолог олимлар томонидан ўрганилганлиги..... **374**
99. Шахноза С.Қ., Мухамедалиева Л.И. Инсон маънавияти ва шахснинг юксак хислари шарқ алломалари қарашларида…… **377**
100. Тураева. Д, Садуллаева. М. Х, Решающий роль игры в социализации детей дошкольного возраста…… **382**
101. Xalmuxamedova M.A., Akberdiyeva B. Bo'lajak talabalarda akseologik dunyoqarashni shakllantirish……... **386**
102. Шамсиддинова Э.М. Олий таълим тизимида тажрибага очиқлик таъсирини ошириш динамикаси ва истиқболлари…… **390**
103. Otamurodova Sh. O. The concept of "creativity" and the symbols of the student's creative potential…….. **393**
104. Tangirqulov E.A. Bola shaxsining rivojlanishida ekologik tarbiyaning ahamiyati…… **396**
105. Turayeva G.E. Yoshlarni sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda missionerlar harakati va ularning salbiy oqibatlari..... **399**
106. Джумаева Х.М. Методология решения задач измерения единиц массы, мощности и времени в начальном образовании……. **404**
107. Norkuchqarova R. Z. O'quvchi-yoshlar tomonidan badiiy qadriyatlarni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari……. **407**
108.Yakubov B.Baxriddin o'g'li, Talabalarda axborot kompetentliligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari…… **411**
109. Yakibova D.Sh. Bo'lajak o'qituvchilarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari…… **415**
110. Эшкувватов И.С. Формирование навыков здорового мышления у учеников как педагогическая проблема…… **420**
111. Ergasheva O.N. O'quvchi-qizlarning ma'naviy tafakkurini yuksaltirish…… **423**
112. Mamaraimova Z.Sh. Ota-onalik ustanovkalarining bola shaxsini tarbiyasiga ta'siri…… **428**
113. Narquchqarova R. Z. Tasviriy san'at vositasida o'quvchilarda milliy-badiiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari…… **431**
114. Ismailov M.K. Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyani rivojlantirish usullari…….. **435**
115. Norboyeva S.M. Bo`lajak pedagoglarda tayanch ma`naviy kompetensiyani rivojlantirish masalalari…… **441**

“TARBIYA FANI:

yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi

Bosishga ruxsat etildi. 15.11.2023 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 40.5, Adadi 100. Buyurtma № 34
Bahosi kelishuv asosida

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,
Bunyodkor shoh ko‘chasi 27 A–uy.